Tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirishda iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	954
I. M. Kamoliddinov, Sodiqov Maqsudjon Abduolimovich	
Tadbirkorlik subyektlarini soliq mexanizmi orqali rivojlantirish masalalari.....	957
Akbarov Akramjon Ibroximjonovich	
Yashil investitsiya samaradorligini oshirish masalalari.....	961
Ibrohimov Muhammadjon Abdullajanovich	
Yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish va eksport imkoniyatlarini oshirish yo'llari	964
K. M. Umarkulov	
"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyati va uning hissasini oshirish masalalari	968
G. T. Mamajanova	
Kichik biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashda mahalliy boshqaruv bilan mushtarak jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari	972
Ubaydullayev Akmal Tulkinboyevich	
Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.....	978
Tursunov Abdulla Qoraboshevich	
Институциональные концепции устойчивого развития в рамках стратегического управления экономикой региона.....	982
Сеитова Лейла Пулатовна	
Hududlarda turistik destinatsiyalarni majmuaviy rivojlantirishda raqobatbardoshlik strategiyasini takomillashtirish istiqbollari	990
Mirzayev Abdullajon Topilovich	
Современное состояние развитие системы железнодорожного транспорта	994
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
Relevance of Benchmarking in Industrial Enterprises.....	997
Uktamjonova Zulayxo Anvarjon qizi	



Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.....	1002
Tursunov Abdulla Qoraboshevich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat xususiy sheriklik asosida byudjetdan ajratilayotgan mablag'larning holati tahlili.....	1006
Xalilova Sh. G'	
Направления обеспечения конкурентоспособности во внешнеэкономических связях.....	1009
Ахмедов Икром Акрамович	
O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish mexanizmini rivojlantirish.....	1023
Primova Nigora Ikrom qizi	
Kichik biznes korxonalarida B2B bozorini tizimli tashkil etishning uslubiy jihatlari.....	1030
Zakirova Gulnoza Qudratovna	
Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists	1034
Iroda Abdieva Gayrat kizi	
Современное состояние достойного труда специалистов транспорта в условиях цифровизации.....	1039
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Обоснование методов оценки совершенствования конкурентоспособности предприятий легкой промышленности	1043
Тухтасинова Мухайё Мирзасултоновна	
Проблемные аспекты трансформации финансовой отчетности бизнеса юридических лиц	1049
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1055
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1058
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni	1062
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1066
Kurbonov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1071
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari.....	1078
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	



O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI DAVLAT- XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI

Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari bo'yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o'rganilgan, 2024-yil uchun umumiy ta'limga xarajatlarining tarkibi hamda maktabgacha ta'lim xarajatlari prognozlarini keltirilgan va ushbu sohada davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirilayotgan loyihalar qiymati tahlil qilingan. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari bo'yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan hamda mam-lakatimizda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat budjeti, davlat-xususiy sheriklik, maktabgacha ta'lim, ta'lim xarajatlari, moliyaviy resurs.

Abstract: The article examines the opinions of the world's leading scientists on the prospects of financing preschool education organizations in Uzbekistan on the basis of public-private partnership, presents the structure of general education expenses and forecasts of preschool education expenses for 2024, and analyzes the value of projects financed on the basis of public-private partnership in this field, preschool education organizations in Uzbekistan based on public-private partnership, justified conclusions and proposals were developed and recommendations for implementation in our country were given.

Key words: State budget, public-private partnership, preschool education, education costs, financial resources.

Аннотация: В статье рассмотрены мнения ведущих ученых мира о перспективах финансирования организаций дошкольного образования в Узбекистане на основе государственно-частного партнерства, представлена структура расходов на общеобразовательное образование и прогноз расходов на дошкольное образование на 2024 год, а также состояние в этой сфере - проанализирована стоимость проектов, финансируемых на основе частного партнерства. На основании перспектив финансирования организаций дошкольного образования в Узбекистане на основе государственно-частного партнерства разработаны обоснованные выводы и предложения, а также даны рекомендации по их применению в нашей стране.

Ключевые слова: Государственный бюджет, государственно-частное партнерство, дошкольное образование, затраты на образование, финансовые ресурсы.

KIRISH

Bugungi kun va yaqin istiqbolda muvaffaqiyat aynan kapital bozorini rivojlantirish va davlat mulkini xususiy-lashtirish, xo'jalik subyektlarining faoliyatiga davlatning ta'sirini kamaytirish hamda xususiy-lashtirilgan xo'jalik subyektlari faoliyatida korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalalari yirik biznes tuzilmalari va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari rivojiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi¹ni 38-maqsadida, maktab-gacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. 2022–2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024–2025-o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish kabi qator vazifalarga ustuvorlik berilganligi¹ maktabgacha ta'limni moliyalashtirishning samarali mexanizmini shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari yuzasidan bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilganligiga guvoh bo'ldik. Jumladan, A.Sherov o'zining maqolasida ta'lim tizimini davlat tomonidan moliyalashtirilishiga e'tibor qaratadi. Bunda maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'lim olishgacha bo'lgan davrni moliyalashtirish to'g'risida va davlat dasturlarida e'tibor berilayotgan jihatlarni keltirib o'tadi^[2]. E'tiborli jihati, alohida tadqiqot sifatida xalq ta'limini moliyalashtirish doirasida olib borilgan tadqiqotlar faqatgina X.Do'stmuhammad tomonidan olib borilgan. Tadqiqot 2009–2012-yillarda amalga oshirilganligini inobatga olsak, maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi bitta davlat boshqaruv organining quyi bo'g'inlari sifatida moliyalashtiriluvchi institutlar tarzida qaralgan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu olim tomonidan xalq ta'limini moliyalashtirish borasida tadqiqotlar olib borilgan.

Jumladan, xalq ta'limi tizimini moliyalashtirishni rejalashtirishda, obyektlarni to'liq qamrab olish, bir o'quvchiga to'g'ri keluvchi xarajatlar me'yorida kelib chiqib, muassasa budget rejasini tuzish va maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning soni qisqarib borish xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi^[3]. N.Norqobilov o'zining tadqiqotida ta'lim tizimi ikki muhim vazifani bajarishi qayd etib o'tgan: birinchidan, inson shaxsini kamol toptirish, takomillashtirish, uni ma'naviy, ahloqiy, badiiy jihatdan rivojlantirish, ma'naviy yetuk, barkamol inson bo'lib yetishishiga yordam berish; ikkinchidan, iqtisodiy vazifani bajarib, malakali ishchi kuchini takror ishlab chiqarish^[4]. Ushbu tadqiqotchining xulosalarida ko'rinib turibdiki, tayanch ta'lim va oliy ta'limni mohiyatidan kelib chiqib shakllantirilganligini ta'kidlash mumkin.

Rossiyalik olimlar tomonidan ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasari alohida tadqiqot obyekti sifatida ajratib olingan. N.Fedina tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini samaradorligini baholashni xarakterlovchi to'rtta ko'rsatkichni ko'rsatib o'tilgan^[5]: - aholining maktabgacha ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabini inobatga olgan holda davlat kafolati asosida maktabgacha ta'limni ta'minlash; - bolalarga ta'lim berish va boshqa xarajatlarni amalga oshirish shartsharoitlari; - kadrlar potentsiali; - budgetdan moliyalashtirish va moliya-xo'jalik faoliyati. Shuningdek, A.Sidorova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim tizimini mamlakat iqtisodiyoti uchun ustuvorligini belgilab beruvchi indikatorlarni ishlab chiqilishini nazarda tutgan tadqiqotlarni amalga oshirgan^[6].

S.Kelesidou va boshqalar maktabgacha ta'lim tashkiloti turi va ota-onalarning yashash joylari ularning talablarini o'zgarishiga ta'sir etishini aniqlagan^[7]. Sheldon Shaeffer maktabgacha ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabni oshirish siyosati va strategiyalarini ishlab chiqqan^[8]. Sharon Wolfand erta bolalik ta'limiga bo'lgan kelgusi 5-10 yilda bo'lishi mumkin bo'lgan talab va taklif miqdorini bashoratlash usullarini ishlab chiqqan^[9]. Sharon Wolfand turli davlatlarda turli xil sharoitlardan kelib chiqqan holda, ota-onalarning ta'lim sifatidan qoniqishlariga qarab ularning ehtiyoj va talablari o'zgarib borishini aniqlagan^[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI



O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari bo'yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bizning sharoitimizdagi ta'lim sohasiga investitsiya mexanizmning asosiy kamchiliklari uni amalga oshirishning murakkabligi, ya'ni ish beruvchilarning ta'lim muassasalariga sarmoya kiritishni istamasligi va ta'lim sohasida homiylik uchun tegishli me'yoriy va uslubiy yordamning yetishmasligi. Bundan tashqari, menejmentga pulni boshqarish bo'yicha ma'lum ko'nikmalar kerak bo'ladi. Investitsiyalarni ta'lim sohasiga yo'naltirish faqat davlat hokimiyati organlari ko'magida amalga oshirilishi mumkin.

2024-yilda ta'limga 69 076,2 mlrd so'm ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, 2023-yilda kutilayotgan xarajatlarga nisbatan 8,5 trln so'mga ko'proqni tashkil etadi.

2024-yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovini 75 %gacha oshirishni hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim xarajatlari rejalashtirilgan. 2025-yil yakuniga kelib, 6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim tizimi bilan to'liq qamrovini ta'minlash va bolalarni maktabgacha ta'lim qamrovini 80 %gacha oshirish ko'zda tutilgan.

1-rasm: Ta'limga xarajatlar, 2024-yil uchun prognoz, mlrd so'm¹2-rasm: Maktabgacha ta'lim xarajatlari tarkibi, 2024-yil uchun prognoz, mlrd so'm²

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va oilaviy turlarining ortishi va ushbu sohada davlat-xususiyl sherklikning yanada rivojlanishi hisobiga bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish rejalashtirilgan.

1-jadval: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ko'rsatkichlari³

Kўrsatkichlar	2023 (kuutilaётган)	2024 (prognoz)
Ma'ribachana ta'lim tashkilotlari soni	30 648	32 819
Davlat ma'ribachana ta'lim tashkilotlari	6 556	6 610
DХШ asosida tashkil etilgan ma'ribachana ta'lim tashkilotlari	1 328	1 429
Oilaviy ma'ribachana ta'lim tashkilotlari	22 730	24 730
Kuvvati (ming ўrin)	983	1 012
Guруҳлар soni (mingта)	52	66
Tarbiyalanuvchilarning umumiy soni, ming nafar	2 160	2 362
3-7 ёшдаги болаларнинг umumiy soni, ming nafar	3 000	3 150
Bolalarning ma'ribachana ta'lim bilan qamrovi	72%	75%
Davlat byudjeti xarajatlari, mlrd soums.	10 993	13 507,1

1 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

2 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

3 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



Nodavlat investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmlarini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi ta'limi tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishi va mamlakat iqtisodiyotini muvaffaqiyatli rivojlantirish shartidir. Ta'limni moliyalashtirishda mablag'larning yetishmasligi, xususiy sektor subyektlarining yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoji ta'lim tizimini rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor subyektlarining moliyaviy va tashkiliy resurslarini birlashtirishning zarurligini bildiradi. Ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish ushbu muassasalar va xususiy sektor subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ancha past faolligini ko'rsatadi – bu ta'lim o'quv yurtlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ba'zi parametrlari bilan tasdiqlanadi. Budget mablag'lari ko'pchilik boshlang'ich ta'lim (maktab) va o'rta ta'lim (litsey va kollej) muassasalari uchun yagona daromad manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlari, tadbirkorlik faoliyati kabi budgetdan tashqari moliyalashtirishning mumkin bo'lgan manbalari kam rivojlangan. Budgetni moliyalashtirishning yuqori darajasi ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, muassasa o'qituvchilari va xodimlarining ishini rag'batlantirish, yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini qoplamaydi.

O'z navbatida, universitetlar davlat budgeti moliyalashtirishga unchalik bog'liq emas, ular pullik ta'lim dasturlarini faol ravishda amalga oshiradilar va ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qiladilar. Shu bilan birga, xususiy kompaniyalar yoki jismoniy shaxslarning universitetlar faoliyatini moliyalashtirishdagi ishtiroki ulushi pastligicha qolmoqda. Ta'lim muassasaning potensial ish beruvchilar bilan o'zaro ta'sirini kengaytirish uchun shartnoma asosida o'qitishga buyurtma berish mexanizmini tashkil etish kerak. Bu jarayonga nodavlat investitsiyalarni jalb qilishning maqbul mexanizmi: xaridor talabani ta'limini butun ta'lim davri davomida to'liq moliyalashtiradi, mijoz va jismoniy shaxs (talaba) pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun shartnoma tuzadilar.

Ta'lim muassasalari tomonidan nodavlat investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb qilish imkoniyati bir qator omillar va sharoitlarga bog'liq bo'lib, ular orasida iqtisodiy va moliyaviy, moliyalashtirish tizimining xususiyatlari va muassasalarning iqtisodiy salohiyatini, shuningdek, tashkiliy-huquqiy jihatdan belgilanadi. Muayyan ta'lim muassasasi darajasida, uning faoliyatning sifat xususiyatlaridan tashqari, mintaqaning iqtisodiy holati va muassasa mutaxassislarini tayyorlaydigan soha, shuningdek, mintaqaning mehnat bozorida vaziyati (mutaxassislarning ish haqi darajasi, ularning talabi) muhim rol o'ynaydi. Ta'lim tizimiga xususiy investitsiyalarning kirib kelishi, bir tomondan, ta'lim muassasalari qo'shimcha moddiy va nomoddiy resurslarni olishini anglatadi. Boshqa tomondan, investitsiya jarayonining ishtirokchisiga aylanib, ta'lim muassasasi qo'shimcha bilim va resurslarga ega bo'lish zaruratini anglatadi. Ta'lim markazi pullik xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida ta'lim xizmati mutaxassis tayyorlash, talaba talabalik shartnomasi o'qitish, xarajatlarini moliyalashtirish, buyurtmachi korxonada ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni faollashtirish uchun davlatning bevosita ishtirokiga emas, balki ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi samarali hamkorlikka asoslangan universal mexanizmlar zarur. Shu bilan birga, ta'lim dasturlarining standart ro'yxatiga ega bo'lgan kichik universitetlar va nodavlat tashkilotlar uchun tegishli sanoat profilidagi xususiy kompaniyalarni jalb qilgan holda muassasa asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish eng maqbuldir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yukoridagi amaliyotlarni o'rgangan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishni takomillashtirish hamda davlat budgetidan ajratilgan mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanilishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga davlat budgeti mablag'lari hisobidan beriladigan subsidiyalarni ajratilishida tarbiyalanuvchilarning o'rtacha oylik daromadining 40 foizdan kam bo'lmasligi mezonini joriy etishi davlat budgetidan ajratilgan mablag'larning samarali sarflanishini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moliyaviy resurslarini yanada kengaytirish hamda davlat budgetidan ajratilgan mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanilishini ta'minlash maqsadida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ko'mir yoqilg'isiga o'tkazish orqali ularni kuz-qish mavsumida issiqlik energiyasi bilan uzluksiz taminlash, ushbu muassasalarning qozonxonalarini modernizasiya qilish, issiqlik tizimini tamirlash va belgilangan meyorlarda ishlashini taminlash funksiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida bosqichma-bosqich xususiy sektorga berish budget mablag'larini iqtisod qilinishi va davlat xususiy sheriklik asosida faoliyat yurituvchi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashga erishilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishni takomillashtirish hamda davlat budgetidan ajratilgan mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanilishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik doirasida ijaraga berilgan yer uchastkasida nodavlat maktabgacha talim tashkiloti binosini qurgan xususiy sherikka ushbu binoni bank kreditlari bo'yicha garovga qo'yishga ruxsat etish bank kreditlarini olishda garov ta'minoti bilan bog'liq yangilik yaratish orqali nodavlat maktabgacha talim tashkilotlarida zarur moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyati yaratilgan.



Imtiyozli davr davomida tadbirkorlik subyektlari tomonidan kredit bo'yicha faqat foiz to'lovlari amalga oshirilishini inobatga olib, davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun imtiyozli kreditlar loyiha tashabbuskorlariga tabaqalashtirilgan foiz stavkalarida kreditlar ajratish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Sherov A.B. Ta'lim tizimini davlat tomonidan moliyalashtirishning huquqiy asoslari va obyektiv zarurati// "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. –T.: TMI, 2017. – №3.
3. Do'stmuxammad X.U. Xalq ta'limini samarali moliyalashtirishni tashkil etish yo'llari: i.f.n. ... avtoreferati: – Toshkent: BMA, 2012. – 22 b.
4. Norqobilov N.N. Ta'lim tizimini budjetdan tashqari moliyalashtirish va kadrlar tayyorlashda marketingning o'rni// Zamonaviy ta'lim jurnali. – T. 2017. – №8. – B. 36-40.
5. Федина Н.В. Организационно-педагогические условия повышения эффективности муниципальной системы дошкольного образования: автореферат ... к.п.н. – Елец, ЕлГУ им. И.А.Бунина, 2005. – с. 24.
6. Сидорова А.А. Стратегия управления системой образования как элемент государственной политики: автореферат ... к.э.н. – Москва. МГУ им. Ломоносова, 2012. – с. 28.
7. S.Kelesidou and etc. (2017) The role of parents' educational level and centre type in parent satisfaction with early childhood care centres: European Early Childhood Education Research. Vol. 25, pp. 768-783.
8. Sheldon Shaeffer. (2015) The Demand for and the Provision of Early Childhood Services since 2000: Policies and Strategies. Background paper prepared for the Education for All Global Monitoring-Report, p.153
9. Sharon Wolfand etc. (2016). Estimating the Demand for and Supply of Early Childhood Education in Northwest Arkansas. Report. p.139.
10. Sharon Wolfand etc. (2018). Testing and Scaling-up Supply- and Demand-side Interventions to Improve Kindergarten Educational Quality in Ghana. SIEF Midline Report. p.109.
11. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

